



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

**Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Fan va innoatsiyalar bo'yicha
prorektori**
H.A.Xushvaqto
H.A.Xushvaqto
11 - noyabr 2025-yil

**22.00.02 – IJTIMOIIY TUZILISH, IJTIMOIIY INSTITUTLAR
VA TURMUSH TARZI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOV LARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2025

Annotatsiya:

Dastur 22.00.02 – ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi ixtisosligiga kiruvchilar uchun 60310400 – sotsiologiya mutaxassisliklarini 2025-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Ushbu kurs oila, ta’lim, din, siyosat va boshqalar kabi turli ijtimoiy institutlarning shakllanishi va faoliyat yuritish mexanizmlarini tahlil qilish va tushunishga qaratilgan. Shuningdek, u turli madaniy va tarixiy sharoitlarda ularning odamlarning xulq-atvori va turmush tarziga ta’sirini o‘rganadi.

Ushbu fanning maqsadi jamiyatning shakllanishi va rivojlanishidagi ijtimoiy institutlarning rolini tahlil qilish va izohlashdan iborat. U talabalarga turli institutlarning ijtimoiy tuzilmalarga, ijtimoiy munosabatlarga va madaniy me’yorlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek, ularning jamiyatning turli guruhlari va tarmoqlaridagi turmush tarziga (turmush tarzi) munosabati haqida chuqur tushuncha berishga intiladi.

Tuzuvchilar:

Sherov M.B.

Samarqand davlat universiteti,
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası
mudiri v.v.b, dotsent.

Tagiyeva G.

Samarqand davlat universiteti,
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası
dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori
(DSc).

Xo‘janov Z.B.

Samarqand davlat universiteti,
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası
o‘qituvchisi, sotsiologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (Phd).

Dastur Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetining 2025-yil 30-avgustdagi 01-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Sotsiologiya gumanitar fanlar doirasidagi shunday yo‘nalishki, u butun jamiyat va uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarining rivojlanish va mavjud bo‘lish qonuniyatlarini, turli sotsial jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini o‘rganadi.

Sotsiologiya fani jamiyatda ro‘y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilan cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Bu fan o‘zining ilmiy xulosalarini empirik darajada asoslangan holatda ilgari suradi. Sotsiologiya fan sifatida hozirgi ijtimoiy jarayonlar holatiga to‘laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, balki ularning istiqboldagi o‘zgarish darajasi xususida bashorat qiladi. Ana shu jihatdan sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o‘rganib chiqish zarurati tug‘iladi.

Dasturning asosiy mohiyati sotsiologiya rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, fanning predmeti va obyekti, institutlashgan shakllari, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanishi, fanlar tizimida sotsiologiyaning o‘rni, sotsiologiyani tushunishdagi ilmiy nazariyalar, uning tushunchalar tizimini ko‘rib chiqishda namoyon bo‘ladi. Fanning nazariy asoslari dolzarb ijtimoiy jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarning mavjud bo‘lishi va rivojlanish muammolari, jamiyat sotsial-madaniy tizim sifatida, shaxs ijtimoiy munosabatlarning ob‘ekti va sub‘ekti sifatida, sotsial munosabatlar, ijtimoiy jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar, sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi. Bunda asosiy e’tibor amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va usullardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga, O‘zbekiston va jahondagi sotsial muammolarga nisbatan qiziqishning oshganligiga qaratiladi.

Ushbu dastur sotsiologiya fani qo‘lga kiritgan va munozarali sotsiologik masalalar yuzasidan keyingi yillarda monografiya, dissertatsiya, ilmiy maqolalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda bildirilayotgan fikrlar, O‘zbekistonda sotsiologiya ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida qilinayotgan harakatlar hamda bir necha yillardan buyon bu fanni oliy ta’lim tizimida o‘qitish tajribasini hisobga olgan holda tuzildi.

Dasturda sotsiologiyani fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jamiyatni yaxlit tizim tariqasida tahlil qilish, ijtimoiy hayotda sotsial institutlar roli, deviant xulq-atvor va sotsial nazorat masalalari, jamiyatning sotsial strukturasi va stratifikatsion jarayonlar, sotsial munosabatlar, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalarini ifodalaydigan mavzular yoritilgan.

Dasturning yakunlovchi qismida empirik sotsiologik tadqiqotlarni olib borishga bag'ishlangan mavzu tavsiya qilingan. Bunda empirik sotsiologiyada keng o'rin olgan sotsiologik ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash hamda tahlil qilish uslublariga ham etarlicha e'tibor qaratildi.

Sotsiologiya fan sifatida

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. O.Kont – pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida.

G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida fanning ob'ekti va predmeti muammosini echish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni.

Sotsiologiya strukturasi

Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Sotsiologiya strukturasi elementlarining rivojlanish dinamikasi. Fundamental (asosiy) sotsiologiya. Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sotsiologik tahlili. Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyliigi va farqi. Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. Empirik sotsiologiyaning bunyod bo'lishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta'siri. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya.

Jamiyat yaxlit tizim sifatida

Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi. Sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari. G'arb sotsiologiyasi asoschilarining ishlarida ijtimoiylikning ta'riflanishi. M. Veber konsepsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari. Jamiyat va davlat. Jamiyatning mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishi. T.Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to'rt funksiyali paradigmasi. Zamonaviy jamiyatning turlicha ta'riflari. An'anaviy jamiyat va Industrial jamiyat. Ularning belgilari. "Mo'lko'llik jamiyati", "Ochiq jamiyat", "Yopiq jamiyat", "Iste'mol jamiyati", "Postindustrial jamiyat" va boshqalar XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni ta'riflash mezonlari sifatida.

Sotsial guruhlar va sotsial institutlar

Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Sotsiologiyada sotsial guruhlarga ajratish mezonlarining xilma-xilligi Sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, in-guruh va aut-guruh, referent guruhlar va boshqalar. G'arb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida. Kvazi-guruhlar. Qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat. Ommani sotsiologik o'rganish. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Sotsial institut belgilari. Sotsial institutning asosiy vazifalari. Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni. Oila va nikoh. Iqtisodiy institutlar. Ularning ko'rinishlari va vazifalari. Iqtisodiy guruhlar va iqtisodiy xatti-harakat. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. O'zbekiston sharoitida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish. O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Dinning funksiyalari. Zamonaviy jamiyatda dinning o'rni. Din bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat. Ta'lim sotsial institut sifatida. Uning taraqqiyoti va shakllari. Umumiy, o'rta-maxsus va oliy ta'lim. Oliy ta'lim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagogik kadrlar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va Yevropa hamda AQSh universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta'lim tizimidagi islohotlar.

Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor

Shaxs tushunchasi. Shaxs tushunchasini turli fanlardagi talqini. Shaxs, inson, individ tushunchalari. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida. Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar. O'z-o'zini baholash va Men- ta'limotining shakllanishi, qadriyatlar va baholar. Shaxsning o'z-o'zini hurmat qilishi. Shaxs strukturasi. Shaxs turlari. Shaxsning an'anaviy va zamonaviy turlari.

Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) tushunchasi. Deviant xulq-atvor muammosini o'rganish sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida. Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik, alkoholizm va boshqalar. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzilishi) nazariyalari.

Sotsial me'yor va anomiya deviant xulq-atvor nazariyasining markaziy tushunchasi sifatida. Deviant xulq-atvor belgilari, ularning strukturasi.

Deviant xulq-atvorni turkumlash. Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tomonlari. Hozirgi

zamonda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o'zgarishi. Deviant, delinkvent va kriminal hatti-harakatlar. Professional jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik. Dunyoda jinoyatchilik holati. Jinoyatchilikni oshishi va jamiyatning kriminallasuvi sabablari va namoyon bo'lish shakllari. O'smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Jamiyatda korrupsiya muammosi.

Sotsial nazorat. Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida. P.Bergerning sotsial nazorat to'g'risidagi ta'limoti. Sotsial nazorat elementlari: me'yorlar va sanksiyalar. Sotsial sanksiyalar turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Sotsial me'yorlar tasnifi. Sotsial me'yor turlari: huquqiy, diniy, an'anaviy va axloqiy. Ichki va tashqi nazorat. O'z-o'zini nazorat qilish muammosi. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.

Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikatsion jarayonlar

Sotsial struktura tushunchasi. Kishilik jamiyati tarixida sotsial struktura muammosining talqini. Sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari. P.Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differensiya. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar. Sotsial stratifikatsiya va sotsial harakatchanlik (mobillik) nazariyasi sinfiylik ta'limotiga qarshi g'oya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o'zgarishi. O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayoni. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari: M. Veber, E. Giddens, T. Parsons, P. Sorokin va boshqalarning qarashlari. Sotsial harakatchanlik belgilari. Sotsial harakatchanlik turlari: gorizontol va vertikal sotsial harakatchanlik. Guruhiy va individual harakatchanlik. Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi sotsial harakatchanlik. Strukturaviy sotsial harakatchanlik. Jamiyatda sotsial harakatchanlik yo'llari. Sotsial harakatchanlikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya. Mehnat va iqtisodiy migratsiya. Xorijiy ishchi kuchlar bozori. "Aqllar oqimi".

Sotsial munosabatlar

Sotsial munosabatlar tushunchasi. Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, begonolashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, notenglik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Sotsial munosabatlarning asoslari. Hamfikrlik, barqarorlik va kooperatsiya - sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E. Dyurkgeym konsepsiyasida hamfikrlik tushunchasi. Kooperatsiya ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm sotsiologiyasida barqarorlik va inqiroz ongi. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash.

Begonalashuv va tanazzul. E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) konsepsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel, ekszenstensial va fenomenologik sotsiologiya asoschilari ta'limotlarida begonalashuv va jamiyatsdagi inqiroz hodisalarining o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi fikrlari. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari. Tenglik va plyuralizm ijtimoiy tuzum tamoyillari sifatida. Milliy g'oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni.

Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi

Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi. Ijtimoiy o'zgarish va taraqqiyot tushunchalarining nisbati. Ijtimoiy progress, regress, evolyusiya va revolyusiya ijtimoiy o'zgarishlarning shakli sifatida. Ijtimoiy progress muammolari. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar. Evolyusion rivojlanish va uning afzalliklari. Sotsial revolyusiyalar va ularning salbiy oqibatlari. Sotsial reformalar va ularning turlari. O'zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o'rni. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzining ahamiyati. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratiyalashtirish jarayonlarining o'ziga xosligi. Ijtimoiy taraqqiyotni boshqarish. Menejment va uning xususiyatlari. Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy ta'siri. O'zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati. Yangi O'zbekistondagi islohotlar. Davlat – inson uchun. Yangi O'zbekistonning yangi ijtimoiy himoya tizimi.

Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy-metodologik va metodik bo'limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta'riflash; tadqiqotning maqsad va vazifalarini, obykti va predmetini aniqlash; obyektzni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

Sotsiologiyada ma'lumotlar to'plash metodlarining umumiy tasnifi: so'rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish metodlari, ularning o'ziga xosligi. So'rov metodi. So'rov turlari. Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiy tuzilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Og'zaki so'rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi. Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish turlari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta'minlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari. Hujjatlarni o'rganish metodi. Sotsiologiyada hujjat tushunchasi, uning turlari. Hujjatlarning informatsiya manbai sifatidagi ishonchlilik muammosi. Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o'rganish metodining bir turi sifatida. Eksperiment metodi. Eksperiment turlari. Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning

bilish imkoniyatlari. Obyektni tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natijalarni tahlil qilish. Xulosalarni tahlil qilish usullari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilganmajlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent, O'zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent, O'zbekiston, 2024. – 512 b.

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.

7. Sotsiologiya (Mualliflar jamoasi). – Toshkent, 2002.

8. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. (Mualliflar jamoasi). – Toshkent, 2001.

9. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriyev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) – T., 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Вебер М. Избрание произведения. – М.: Прогресс, 1990.

2. Giddings E. Sotsiologiya. – T., 2002.

3. Современная западная социология. Словар. – М.: “Прогресс”, 1990.

4. Кравченко А.И. Социология. – М., 2006.

5. Социология религии. В.И.Гараджа. – М, 2005.

6. Qodirov A.Q. Sotsiologiya. – T., 2006.

7. Saitxodjayiv H.B. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. – T., 2008.

8. Holbekov A., Idivov U. Sotsiologiya: izohli lug‘at-ma’lumotnoma. – T., 1999.
9. Albrow M. Sociology: The basics. – L.;N.Y/.; Routledge,1999.
10. Bassis M. Sociology: An introduction; 5-th rev. ed, London; McGraw, 1994.
11. Giddens A. Sociology. 3rd ed. – Cambridge: Polity press,1998.
12. Vincent Price. Public opinion. London. 1992.
13. Karl-Heinz Hillman. Wörterbuch der Soziologie. – Stuttgart.: Kröner, 1994.

Internet saytlari:

15. [http: www.lib.socio.msu.ru](http://www.lib.socio.msu.ru)
16. [http: www.socioline.ru](http://www.socioline.ru)
17. [http: www.socio.rin.ru](http://www.socio.rin.ru)
18. [http: www.sociologos.narod.ru](http://www.sociologos.narod.ru)
19. [http: www.socionet.narod.ru](http://www.socionet.narod.ru)
20. [http: www.sociograd.ru](http://www.sociograd.ru)

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100